



## TURLI USULLAR YORDAMIDA POMIDOR KUYASI BILAN ZARARLANISHNING OLDINI OLIISH VA HOSILNI SAQLAB QOLISHDA MUHIM TAVSIYALAR

---

*Aslamov Dilshod Baxtiyorovich*

*SamATI tayanch doktoranti*

*Abdullayev Azizbek Abduvali o'g'li*

*SamATI talabasi*

**Annotation:** In this article on the control of tomato moth morphological signs of the disease, damage properties, chemical and biological control against it programs are shown.

**Аннотация:** В данной статье для борьбы с морфологическими особенностями томатной моли, повреждениями свойства, химический и биологический контроль отображаются программы.

**Kalit so'zlar:** Pomidor kuyasi, (*Tuta absoluta*) kimyoviy kurash, biologik kurash, agrotexnika, ziroatchilik, ituzumdoshlar, texnologiya, kuya, karantin.

Jahonda sabzavot va poliz ekinlari, xususan pomidor dunyoning ko'plab mamlaktlarida yetishtiriladi. Ushbu o'simlik oziq-ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi. Ituzumdoshlar oilasiga mansub ushbu o'simlikning pishib yetilgan mevasinig ozuqaviy energetik qiymati -19 kkal. O'simlik mevasi tarkibi vitaminlarga boyligi, uglevodlar, oqsillarga ko'p miqdorda boyligi bilan inson organizmi uchun foydali hisoblanadi.[1] (<https://uz.m.wikipedia.org>) Tiriklik uchun foydali hisoblangan ushbu rezavor mevaning afsuski kasallik va kushandalari ko'plab topiladi. Bu kabi kasallik va zararkunandalar o'simlikni zararlab, hosil miqdorini kamaytiradi hamda mahsulotning sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Afsuski bunday kasallik va zararkunandalar orasida hozirgi kunda eng xavfli va iqtisodiy samaradorlikka jiddiy zarar keltirayotgan eng xavfli kushanda bu pomidor kuyasi bo'lib turibti.

Pomidor kuyasi – Pomidor g'ovaklovchi kuyasi.(*Tuta absoluta*) Pomidor kuyasi Tangachaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera) turkumi, o'yiqqanotli kuyalar (Gelechiidae) oilasiga mansub hasharot. *Tuta absoluta*-Pomidor kuyasi 1-marta Meyrick (1917) va Povolny (1994) lar tomonidan aniqlangan va o'rganilgan. Vatani-Janubiy Amerika, hozirda dunyoning juda ko'plab mamlakatlariga keng tarqalib ketgan. Yevropada pomidor kuyasi 1-marta 2006-yilda qayd etilgan.[2] (<https://uz.m.wikipedia.org>)



Pomidorning eng xavfli zararkunandasi bo‘lmish ushbu hasharot asosan o‘simlikning bargi, mevasi, o‘sov nuqtalari, ildiz bo‘g‘izlari va sersuv yangi hosil bo‘lgan shoxchalari bilan oziqlanib zarar keltiradi. Kurash tadbirlari vaqtida o‘tkazilmasa hosilga 50-60% zarar yetkazadi. Shu oilaga mansub boshqa ituzumdoshlar (kartoshka, qalampir, baqlajon, tamaki) va begona o‘tlar (bangidevona, mingdevona, ituzum va boshqa) bilan ham oziqlanadi. Ekilgan o‘simlik ko‘chatlarini butun o‘sov davrida zararlaydi. Kuya qurtlik (lichinka) bosqichida o‘simliklarga zarar keltiradi, zararkunandaning lichinkalik bosqichi 12-15 kun davom etadi. Ozuqa yetarli bo‘lmasa qurtlari diapauzaga kirmaydi. Qurtlari barg va poya to‘qimalari bilan oziqlanib, o‘ziga xos katta, har xil shaklli dog‘larnig‘ovaklarni hosil qiladi. Pomidor kuyasi kapalagi kechalari uchadi, kunduzlari o‘simlik barglari orasida yashirinib oladi. Odatda tuxum qo‘ygandan keyin 4-7 kundan so‘ng undan lichinkasi chiqadi. Kapalak (emago) tuxumlarni ko‘pincha barglarga, barg tomirchalari va poyalarga, kamroq mevalarga qo‘yadi. Ushbu zararkunanda rivojlanishi uchun eng past harorat 9 daraja, eng qulay optimal harorat esa 20-27daraja ni tashkil etadi. Bir avlodning umri 30-35 kun, optimal sharoitlarda esa 24 kunda, 14 darajada esa 76 kunda yakunlanadi. Kuya bilan kuchli zararlangan barglar to‘la nobud bo‘ladi. Kuya zararlagan pomidor o‘simligi hosilining 80-100% i ba‘zi hollarda esa to‘liqligicha nobud bo‘lishiga olib keladi. Zararlanish boshlangan kundan boshlab 1ga bo‘lgan maydonni zararkunanda 2 haftada to‘la vayron qilishi kuzatilgan. Kuya tarqalgan mamlakatlarda olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki ushbu zararkunandaga qarshi kurashish juda qiyin.[3] (Xo‘jayev Sh.T, Xolmurodov E.A „Entomologiya, qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoya qilish va Agrotaksikologiya“, uslubiy qo‘llanma.)

Zararlanish qatd etilganda samara olish uchun bir qator tadbirlarni kompleks holda qo‘llash talab etiladi. Bu tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Zararkunandalarni aniqlash; (Feramon tutqichlar)
- Agrotexnik tadbirlar;
- Kimyoviy preparatlar qo‘llash;
- Biologik kurash;
- Karantin tadbirlari.
- Chidamli bo‘lgan navlarni yaratish va ekish(seleksiya, tanlash)

O‘simlikni zararlanishdan va hosilni yo‘qotishdan saqlanish uchun avvalo kasallik, zararkunanda tarqalishini kutish eng katta xatolardan biri hisoblanadi. Bunday iqtisodiy zarar bo‘lmasligi uchun dehqon xo‘jaliklari hamda fermerlar yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. Hozirgi kunda feramon



tutqichlardan keng foydalanilmoqda, ular zararkunandani dalada tarqalish diagnostikasini yaqqol ko'rsatib bermasada juda samarali hisoblanadi. Biz dalada zararkunanda tarqalganini sezsak, zudlik bilan eng muqobil yo'lni tanlashimiz kerak. Qaysi kurash choralari samarali va qulay bo'lsa shu yo'sinda ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biologik kurash. Bunda pomidor kuyasining tabiiy kushandalarini (*Trichogramma achaea*, *Nabius pseudoferus*) qo'llash, bakterial preparatlar va *Azadirachta indica* (Hind nastarini) daraxtining urug'laridan olinadigan moyli birikmalar samarali bo'lib yuqori samara bermoqda. Ushbu kurash usuli biologik toza mahsulotlar yetishtirish uchun eng maqbul hisoblanadi.

Kimyoviy preparatlar qo'llash. Hozirda mamlakatimiz hududida ushbu zararkunandaga qarshi ishlatilayotgan va ro'yxatga olingan preparatlarni qo'llash:

Abamek-1,8% em.k (tasir etuvchi moddasi-Abamektin) – 0,3-0,35 l/ga (Top Treyd Plyus, Uzb).

Kapito KC – 9,3% sus.k (t.e.m- indoksakarb 75g/l + abamektin18g/l) – 0,45 l/ga (Xektash, Turkiya).

Takumi – 2% s.e.g (flubendiamid) – 0,3 kg/ga (Yaponiya). Undan tashqarti Zamektin- 15% s.e.g., Ampligo- 150 m.k.s., Koral- 10% e.k., Agroplan- 20% n.kuk., Benzoat super- 10% s.d.g.. kabi zararkunandalarga qarshi insiktetsidlar bilan ishlov berish ruxsat etilgan.[4] (G.Nazimova., And QXAI, Agro Olam.Uz sayti ma'lumoti).

O'zbekiston hududida Pomidor ekiladigan jami maydonlar.

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-maydagi 03-32-17- sonli yig'ilish bayoni 6-ilovasi)

T/r	Viloyatlar	Pomidor ekin maydoni., (ga)	Pomidor kuyasi tarqalishi mumkin bo'lgan maydonlar	
			Gektar	%
1	Qoraqalpog'iston R.	1978	1190	60
2	Andijon	6000	3600	60
3	Buxoro	1715	1030	60
4	Jizzax	5714	3880	67
5	Qashqadaryo	4757	2850	60
6	Navoiy	3255	1950	60
7	Namangan	6269	2970	91
8	Samarqand	12970	8780	68
9	Surxondaryo	10223	6130	60



10	Sirdaryo	1193	720	60
11	Toshkent	11149	7020	63
12	Farg‘ona	2867	1720	60
13	Xorazm	3947	2370	60
14	Jami:	69037	44160	64

### Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki agar biz o‘z vaqtida ushbu zararkunanda bilan samarali kurash olib bormasak borib-borib pomidor hosilidan hattoki o‘simlikdan (poya, barg) ham foydalana olmay qolishimiz mumkin. Bunday salbiy oqibatlar kuzatilmassligi uchun biz ushbu zararkunandaga iloji boricha chuqurroq yondashib, hasharotning qaysi fazada ekanligini, qay tarzda zararlayotganini, qaysi kurash tadbirlari ko‘proq samara berishini o‘rganib chiqqan holda qarshi kurashish lozim. O‘z vaqtida kasallik tarqalishini aniqlash, agar kasallik tarqalib ulgurgan bo‘lsa uni yo‘qotishning samarali va inson salomatligiga ta‘sir doirasini, salbiy jihatlarini, xavfli bo‘lmagan iqtisodiy jihatdan foydali rejalashtirilgan maqbul yo‘lni tanlash juda yaxshi samara beradi. Agarda ushbu zararkunandaning tarqalish sur‘ati jadallashuvi kuzatilsa bu holatda Pomidor kuyasini (Tuta absoluta) ichki karantin obyekti ro‘yxati tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu albatta o‘zining natijasini bermasdan qolmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-mayda o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni № 44 Toshkent., 2019-yil 19-may.
2. B.G Muhammadiyev, M.B Qurbonmurotova „Pomidor kuyasi – Tuta absoluta“., o‘quv qo‘llama., Toshkent., 2017-yil.
3. Xo‘jayev Sh.T, Xolmurodov E.A „Entomologiya, qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoya qilish va Agrotaksikologiya“., uslubiy qo‘llanma., Toshkent., 2008.
4. G.Azimova AndQXAI., O‘simliklar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari karantini kafedrasida magistranti., „Agro Olam.Uz“., maqola ma‘lumotlari.
5. Aslamov, D., Mashrabov, M. I., & Maxmatmurodov, A. O. (2023). TURLI FOSFORLI OG‘ITLARNING OQBOSH VA GULKARAM EKINLARIGA TA‘SIR SAMARADORLIGINI ORGANISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 1088-1092.
6. O‘lmasovich, M. A., & Turabovich, N. N. (2022). GERMANIYADA O‘SIMLIKLAR KARANTIN TIZIMI HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?.



- Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 749-753.
7. Mamatmuratovich, A. S., & Chori o'g'li, S. S. (2023). POMIDOR KUYASI (TUTA ABSOLUTA MEYR) GA QARSHI KURASH KURASH CHORALARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 486-489.
  8. Махматмуродов, А., Пўлатов, О., & Содиков, Э. (2023). БОДОМНИНГ СЎРУВЧИ ЗАРАКУНАДАСИ ОДДИЙ ЎРГИМЧАККАНА (TETRANYCHUS URTICAE КОСН.) ВА УНГА ҚАРШИ КИМЁВИЙ ПРЕПАРАТЛАРНИ БИОЛОГИК САМАРАДОРЛИГИ. Development and innovations in science, 2(10), 108-113.
  9. qizi O'rishaliyeva, N. I. (2022, October). POMIDOR KUYASI BIOLOGIYASI, TARQALISHI, ZARARI VA QARSHI KURASH USULLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 7, pp. 107-110).
  10. Fayzimurodov, J. B. O. G. L., Toshmurodov, E. S. O. G. L., & Mirzaraximov, D. E. O. G. L. (2023). HAR YILLI RESPUBLIKAMIZDA ERTA VAHORDA BEDA YASHIL MASSA HOSILDORLIGIGA ZARAR YETGAZUVCHI HASHAROT VA UNGA QARSHI KURASHISH YO 'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 1093-1097.
  11. Файбуллаев, Ф. С., & Ялгашев, А. Ф. (2022). МАККАЖЎХОРИ 707 ДУРАГАЙИНИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 346-349.
  12. Internet saytlari:  
<https://uz.m.wikipedia.org>  
<https://www.agro.uz>  
<https://Uzdavkarantin.uz>  
<https://xs.uz>  
<https://cppo.uz>  
<https://CABI.org>